

INFORMATIKA FANINING DOLZARBLIGI.

Rustamova Shahnoza Kodiraliyevna

Farg'ona Shahar 1-sonli politexnikum

informatika fan o'qituvchisi

Annotatsiya: Informatika faniga oid atamalar, boshqa fanlar bilan bog'liqligi, kelib chiqish tarixi, O'zbekistonda informatikaga oid ma'lumotlarga ega bo'lishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Informatika, ([fransuzcha](#): *informatique*, [nemischa](#): *informatik* – axborot, [inglizcha](#): *computer science*), axborotshunoslik – ilmiy [informatsiyaning](#) ([axborot](#), xabar, ma'lumot) mohiyati, umumiy xossalari va qonuniyatlarini, shuningdek, ilmiy [kommunikatsiya](#) tizimini (o'sha ilmiy [informatsiyaning](#) tarqatish usullari va vositalari majmui. [kibernetika](#), [kutubxonashunoslik](#), [lingvistika](#)

Informatika so'zi turli xil tillarda tarjima qilingan. ([fransuzcha](#): *informatique*, [nemischa](#): *informatik* – axborot, [inglizcha](#): *computer science*), axborotshunoslik – ilmiy [informatsiyaning](#) ([axborot](#), xabar, ma'lumot) mohiyati, umumiy xossalari va qonuniyatlarini, shuningdek, ilmiy [kommunikatsiya](#) tizimini (o'sha ilmiy [informatsiyaning](#) tarqatish usullari va vositalari majmui) o'rganish bilan shug'ullanadigan ilmiy [fan](#); inson faoliyatining [EHM](#), [kompyuterlar](#) bilan bog'liq bo'lgan sohasi. [Ijtimoiy fanlar](#) jumlasiga kiradi. Uning markaziy tushunchasi – ijtimoiy hayotning istalgan sohasi va tarmoqlaridan olinadigan ma'lumotlar, ya'ni ilmiy [informatika](#).

Ilmiy [informatsiyaning](#) olish va undan foydalanish sohalari hamda vazifasiga ko'ra, u turli xillarga bo'linadi. Masalan, sohalar bo'yicha – biologik, siyosiy, iqtisodiy,

texnikaviy, kimyoviy, tibbiy va boshqalar, vazifasiga ko'ra – ommaviy, maxsus informatsiya va hokazo. Ilmiy informatsiyaning to'g'riligi, yangiligi va foydaliligi mezonlarini ishlab chiqish informatikaning vazifasiga kirmaydi. Informatika [kibernetika](#), [kutubxonashunoslik](#), [lingvistika](#), matematik mantiq va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq. U ilmiy ma'lumotlarni yig'ish, ishlab chiqish (o'rganish), saqlash, izlash va tarqatish jarayonlari majmuini o'z ichiga oladi.

Informatika termini XX asrning 60-yillarida ishlatila boshlangan. Bu davrda ko'pchilik tadqiqotlar [axborotlarni](#) qidirish muammolari bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Ayni shu davrda [axborotlarni](#) qidirish tizimi va usullari yaratildi.

Informatikaning yuzaga kelishi va rivojlanishida [hisoblash texnikasi](#) va boshqa texnik vositalarning o'rni beqiyos, chunki [axborotlar](#) bevosita [hisoblash texnikasi](#) yordamida qayta ishlanadi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonlarida axborot texnologiyalari alohida dolzarblik kasb etmoqda. Kompyuter dasturlarivositalarida yoshlar bilimi va dunyoqarashini kengaytirishda keng foydalanilmoqda. Turli fanlardan o'qishda zamonaviy axborot texnologiyalarni joriy etib dars samaradorligini oshirmoqda. Xususan I-IV sinflar o'quvchilariga mo'ljallangan ona tili fanini o'qitishda ham kompyuter dasturlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiatsunoslik -fizika, kimyo, biologiya va boshqalar-bizning ongimizdan mustaqil ravishda mavjud bo'lgan dunyoning ob'yekt va sub'yektlari bilan shug'ullanadi.

Keng ma'noda ma'lumotlarni izlab topish, qayta ishlash va ilmiy izlanish natijasi sifatida qayd qilib qoldirish ishlari bilann olim va mutafakkirlar qadimdan shug'ullanishgan. Masalan, [Abu Rayhon Beruniyning](#) „Hindiston“ asari, [Zahiriddin Muhammad Boburning](#) „Boburnoma“ asari shunday asarlar jumlasiga kiradi. Informatikaning ilmiy fan sifatida rasman shakllanishi 1895-yildan – Bryusselda

xalqaro bibliografiya instituti (1938-yildan – Xalqaro hujjatnomalar federatsiyasi) tashkil qilingan sanadan boshlandi. XX asr 60-yillari oxiriga qadar „Informatika“ termini o‘rniga „xujjatnomalar“ yoki „hujjatnoma va informatsiya“ termini ishlatilgan. Fan-texnika inqilobi, [EHM](#), informatsiya texnikasi vositalari (mikrofoto suratga olish, nusxa ko‘chirish texnikasi va hokazo) va boshqalarning paydo bo‘lishi informatikaning [fan](#) sifatida taraqqiy etishiga imkon tug‘dirdi. Ayniqsa, kompyuterlar tarmog‘i va u bilan bog‘liq ravishda [internet](#) tizimining rivojlanishi umuman informatikaning, xususan, Informatika kommunikatsiya tizimining yana-da taraqqiy etishiga sabab bo‘ldi. Izlab topilgan, to‘plangan, qayta ishlangan „tayyor“ [informatsiya](#) – ma’lumotlarni keng tarqatishda tahririyat-nashriyot va matbaa jarayonlari, ilmiy nashrlarni tarqatish (xususan, [kitob](#) savdosi, [kutubxona-bibliografiya](#) faoliyati;) ilmiy adabiyotlar almashinish; [arxiv](#) ishi va, albatta, ilmiy-informatsion faoliyat, radiotelevideniye, [internet](#) tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Informatikaning asosiy yo‘nalishlari: hisoblash texnikasining nazariy asoslari, informatsiya nazariyasi, hisoblash eksperimenta, programmalash, [sun‘iy intellekt](#), informatsiya texnologiyasi va boshqa [inglizcha](#) gaplashiladigan davlatlarda informatika termini o‘rniga „computer science“ („hisoblash fani“) termini ishlatiladi.

Ayrim davlatlarda informatika termini o‘rniga „computer science“ („hisoblash fani“) termini ishlatiladi.

[O‘zbekistonda](#) ham informatika masalalariga katta e’tibor berildi. Masalan, 1993-yilda informatsiyalashtirish to‘g‘risidagi qonun qabul qilindi, 1994-yil O‘zbekiston xukumati Respublikani informatizatsiyalashtirish konsepsiyasini qabul qildi, shu yili [EHM](#) uchun dasturlar va ma’lumotlar bazasini huquqiy himoya qilishga doir qonun ishlab chiqildi. Keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining „Kompyuterlashtirish va informatsiyakommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilishni yana-da rivojlantirish to‘g‘risida“gi farmoni (2002 y. 30.05) chiqdi va [Vazirlar Mahkamasining](#) „Kompyuterlashtirish va informatsiyakommunikatsiya

texnologiyalarini joriy qilishni yana-da rivojlantirish to'g'risida"gi qarori (2002 y. 06.06) qabul qilindi.

Informatika masalalari bilan maxsus tashkilotlar, xususan, yirik [kutubxonalarning](#) informatsiya xizmati shug'ullanadi. [O'zbekistonda](#) bu ish bilan [O'zbekiston milliy kutubxonasi](#), Aloqa va informatika universiteti, O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi, Davlat statistika departamenti, hisoblash markazlari, O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi, radio va televideniya tizimi, O'zdavstandart shug'ullanadi. [O'zbekiston Respublikasi](#) Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi tuzgan (2000) Ko'p funktsiyali informatsiya markazi 14 hududiy hamda ko'plab shahar va tuman tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatalarini yagona informatsiya tarmog'iga birlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedova O" Axborot xavfsizligiga oid terminlarning ruscha- o'zbekcha lug'oti" Toshkent, 2009y.
2. Olifer V.P" Kompyuter seti " 2003
3. Muhammedov R.J "Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari " 2004 y